

ISSN 2181-7138

МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Айтбаев Д. Т. Асимметрик дуализм коммуникациянинг семиотик тамойили сифатида	6
Yuldasheva Sh. Sh. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'zbek tilini qardosh tillardagi guruhlarda o'qitishning o'ziga xosliklari va tajribalar	13
Arifjanova O. Q. Ingliz tilini o'qitishdagi yangi texnikalar: o'qish(reading) va eshitib tushunish(listening) misolida	20
Неъматова С. Глубокие корни развития литературы	25
Мирзорохимов О. К. Для чего предназначен словарь	33

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Yusupova M. A., Baxtiyorova S. E. Pedagog tarjimonlarni tayyorlash zaruriyati	40
Jabborova O. M., Baxtiyorova S. E. Bo'lajak ingliz tili pedagoglarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan tanishtirish yo'nalishlari	44
Narimbetova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	48
Umarova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlari	52
Umarova Z. A., Nazirjonova M. B. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari	60
Xusnetdinov U. I. Qoraqalpog'iston Respublikasi talaba yoshlarida ekologik madaniyatni shakllantirish g'oyasining rivojlantirish yo'llari	64
Qarshiboyeva X. K. TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari	72
Beketov N. A. Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni boshqarish	78
Beketov N. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarbiya funksiyalari	84
Quzmanova G. B., Davlatova M. A. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS hamda PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	95
Kuchkinov A. Yu., Tilovova S. B. EKO-STEAM ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv	100
Qorajonova B. T. Maktablarda psixologik maslahat tashkil etishning samarali shakl va uslublari	110
Абдурахмонова У. Н. Педагогик фаолиятда инновациялардан самарали фойдаланишни ташкил этиш йўллари	117
Turayeva G. E. Pedagogik jarayonni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyat va afzalliklari	121
Xurramova M. A. Ta'lim mazmunini shakllantirishda hermenevtik yondashuv imkoniyatlari	126
Achilov T. S. Vatanparvarlik tarbiyasi – maktab o'quvchilarining qiymat-semantik kompetensiyasini shakllantirishning muhim elementi sifatida	134
Abdusalilova D. Madaniyatlararo muloqot yo'nalishida «ijtimoiy-madaniy kompetentlik» tushunchasi	141
Мусурманкулова М. Н. Изучение сопоставительно-диаектологической компетенции в современной педагогике	146
Шамиева О. Р. Роль дисфункциональных родителей в эмоциональном благополучии ребёнка	152
Ochilov E. Yu. Role of ai-powered chatbots in increasing efficiency of learning processes	156



UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA UCHRAYDIGAN PSIXOLOGIK XARAKTERDAGI PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHNING AMALIY SHAKLLARI

Umarova Z. A.

pedagogika fanlari bo'yichafalsafa doktori (PhD), CHDPU

Nazirjonova M. B.

CHDPU 4-bosqich talabasi

Tayanch so'zlar: pedagogika, psixologiya, konflikt, o'quvchi, xarakter, shakl, amaliyot.

Ключевые слова: педагогика, психология, конфликт, ученик, характер, форма, практика.

Key words: pedagogy, psychology, conflict, student, character, form, practice.

O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktablarini xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limi rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida eng muhim vazifalar qo'yilgan [1]. Mazkur Milliy dastur "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" to'rtinchi yo'nalishini amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda "sifatli ta'limga erishish va inson kapitalini rivojlantirish" vazifalari qo'yilgan. Milliy dasturda ana shu vazifalarni amalga oshirishning mexanizmlari belgilab berilgan. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan *psixologik xarakterdagi* pedagogik konfliktlarni amaliy hal etib borish ana shu vazifalarning ijrosi doirasiga kiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1) o'quvchining ruhiyatida kechadigan tushkuni kayfiyat va o'ziga ishonchsizlik hissi;

2) o'quvchi ruhiyatida noto'g'ri tushunish tufayli yuzaga keladigan ziddiyatli holatlar;

3) o'quvchi ruhiyatining rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan ruhiy o'zgarishlar;

4) o'quvchi ruhiyatida tashqi ta'sir tufayli yuzaga keladigan tushunmovchiliklar.

Mazkur psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari o'tkinchi xususiyatga ega bo'lsa-da, lekin ularning quyidagi zararli oqibatlari idrok etiladi:

- 1) o'quvchi ruhiyatining lat yeyishi;
- 2) o'quvchi ruhiyatida stressning yashovchan bo'lib qolishi;
- 3) o'quvchi ruhiyatida anatomik-psixologik o'zgarishlarning yuzaga kelishi;
- 4) o'quvchi ruhiyatida istalmagan psixologik xarakterning yuzaga kelishi.

Shu sababli o'quvchilarda uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni o'z vaqtida va samarali bartaraf etib borish taqozo etiladi. Mana shunday bartaraf etishning amaliy shakllari ko'p. Bunday shakllarning asosiylari sifatida quyidagilarni ta'kidlay ko'rsatish lozim:

- 1) amaliy mashg'ulot;
- 2) sayohat;
- 3) amaliy to'garak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning *amaliy mashg'ulot* shakli muhim samarani beradi. Unga ko'ra, psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlar mavjud o'quvchilar aniqlanib, ular bilan qisqa muddatli (haftalik) amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlarda ruhiy ko'tarinkilik beradigan va o'ziga ishonch uyg'otadigan treninglar o'tkazish, filmlar ko'rish va sahna tadbirlari tayyorlash kabilarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning *sayohat* shakli ham muhim amaliy samarani beradi. Unga ko'ra, o'quvchilar tabiat olamiga olib chiqiladi, teatrlarga olib boriladi va o'quvchilarning sayohat davomida olgan taassurotlari yozma ishlari o'tkaziladi. Buning natijasida o'quvchilarning ruhiyatida muhim ijobiy va ijodiy o'zgarishlar yuzaga kelishi amaliyotda kuzatilgan. O'quvchilarning psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarini bartaraf etishning *amaliy to'garak* shakli ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, muntazam faoliyat yuritidagan amaliy to'garaklar tashkil etiladi va ularning mashg'ulotlarida mashhur shaxslar, tajribali kishilar hamda mutaxassislar ishtirokida ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi. Bunday yondashuv o'quvchilarning ruhiyatida ko'tarinkilik, umidvorlik va orzularni paydo qilishi amaliyotda kuzatilgan hamda bunday xususiyatlar vositasida o'quvchilarning ruhiyatida yangilanish boshlanishini ta'kidlab o'tish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni amaliy shakllar vositasida bartaraf etish



ishi Sinf rahbari boshchiligida “Tarbiya” fani o‘qituvchisi, maktab psixologi, maktabning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’uli va imkon qadar taklif etilgan mutaxassisdan iborat Guruh tomonidan amalga oshiriladi. Shuni ta’kidlash lozimki, psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlar ko‘rinishlari o‘z vaqtida, tezkor va samarali bartaraf etilishi bilan amaliy natija beradi. Shu sababli Guruh masalaning ushbu jihatlariga qat’iy e’tibor berishi kerak.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan va o‘quv adabiyotlari nashr etilgan [2;3]. O‘quvchilarda uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni amaliy shakllar vositasida bartaraf etishda ana shu manbalarga tayanish tavsiya etiladi va bu bilan amalga oshiriladigan tadbirning kutilgan samarasiga erishish imkoniyatiga ega bo‘linadi.

O‘quvchilarda uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni amaliy shakllar vositasida bartaraf etish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda o‘ziga xos ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirgani va bu borada muhim psixologik metodlar ishlab chiqilganini eslatib o‘tish joiz. Misol uchun, mazkur masalada Rossiya Federatsiyasi olimlari muhim natijalarga erishgan [4]. Unga ko‘ra, treninglar imkoniyatlaridan foydalanishga asosiy e’tibor qaratiladi. Chunki treninglar o‘quvchilarni faollashtirishi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashishga da’vat qiluvchi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda bunday xorijiy tajribalardan amaliy foydalanish kutilgan samarani beradi.

Mamlakatimizda psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar endi amalga oshirila boshlandi. Ularning dastlabki xulosalaridan foydalanish uchun mamlakatimizda nashr etilayotgan “Boshlang‘ich ta’lim”, “Xalq ta’limi”, “Maktab va hayot” kabi jurnallardagi ilmiy-amaliy va metodik maqolalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotchilarning ko‘pchiligi ilmiy ishlarining dastlabki natijalarini kitob shaklida ham nashr etmoqda va ana shunday kitoblarning elektron versiyasidan foydalanish imkoniyatlari mavjudligini eslatib o‘tish joiz.

Pedagogik konfliktlar nazariyasi va amaliyotida psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlar ko‘rinishlari o‘quvchi shaxsi va jamiyat uchun tahdidli hodisa sifatida talqin etiladi. Shu sababli mazkur masalada umumiy o‘rta ta’lim maktablari psixologlarining kasbiy ma’lumotlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish kutilgan samarani beradi:



1) oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari bilan qurollantirish;

2) pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslarida maktab psixologlarining psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari bo'yicha malakasini kuchaytirib borish;

3) psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar xulosalarini amaliyotga tatbiq etish va mutaxassilarnip mazkur jarayonga jalb etish.

Bularning barchasi qo'yilgan muammoni hal etishda keng imkoniyatlarni beradi.

Shunday qilib umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari muammoni amaliy va metodik jihatdan tezkor hamda kutilgan darajada hal etish imkoniyatlariga egaligi bilan e'tiborga loyiq. Shu sababli mazkur masalalar ilmiy tadqiq etib borilishi dolzarb bo'lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limi rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. www.ziyounet.uz.
2. Axmedova M. Pedagogik konfliktologiya. – Toshkent, 2020
3. Umarova Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. –Toshkent,2021
4. Ванькина С. Конликт в современной школе: изучение и управление. –Москва, 2006

РЕЗЮМЕ

Мақоллада умумта'лим мактаблари о'қувчиларида учрайдиган психологик хarakterdagi педагогик конфликтлари bartaraf etishning amaliy shakllari to'g'risida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

Встатей размышлено о практические формы преодоления педагогических конфликтов психологического характера в учеников общеобразовательных школах.

SUMMARY

The articles reflect on the practical forms of overcoming pedagogical conflicts of a psychological nature in students of secondary schools